




## ISTE'MOL BOZORI

2018 yil yanvar-sentabr

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi 6240,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,2 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, avtomobil savdosiga, benzin va gaz mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,0 foizga ko'payishiga olib keldi.

**2018 yil yanvar-sentabr oylarida umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizda)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shaxri (25,4 foiz), Koson (9,7 foiz), Chiroqchi (8,4), Kitob (6,4) va Qamashi (6,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Viloyatdagi shaxar va tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1967,4 ming.so'm bo'lib o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil etdi.



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahari (5898,8 ming.so'm), Shaxrisabz shahri (2607,8 ming.so'm) Mirishkor (2509,0 ming.so'm), Muborak (2250,0 ming.so'm) va Dehqonobod (2225,8 ming.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining tovar aylanmasi 139,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Ming,so'mda

	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi	O'tgan yilning mos davri nisbatan % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1967,4</b>	<b>101,7</b>
<i>Qarshi sh</i>	5898,8	105,0
<i>Shaxrisabz sh</i>	2607,8	100,3
<i>tumanlar:</i>		
<i>G'uzor</i>	1201,4	100,4
<i>Dehqonobod</i>	2225,8	100,6
<i>Qamashi</i>	1630,4	100,7
<i>Qarshi</i>	996,3	100,3
<i>Koson</i>	2211,3	99,3
<i>Kitob</i>	1551,2	101,8
<i>Mirishkor</i>	2509,0	101,1
<i>Muborak</i>	2250,0	102,8
<i>Nishon</i>	1691,1	102,4
<i>Kasbi</i>	1436,0	102,4
<i>Chiroqchi</i>	1337,7	100,1
<i>Shaxrisabz</i>	1044,9	101,4
<i>Yakkabog'</i>	1301,8	100,6

## KICHIK TADBIRKORLIKNING JAMI CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI


Kichik tadbirkorlik subektlarining chakana savdo tovar aylanmasi 5249,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizga o'sishiga olib keldi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 84,1 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining **4200,8** mlrd,so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi **67,3** foizni tashkil etdi.



### Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (tumanlar kesimida)



Qashqadaryo viloyat statistika  
boshqarmasining

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'lim boshlig'i.

Nashr uchun mas'ul: O'. Zulfiqorov  
(0371) 230-83-91